

**ZOOLOGIYA FANI DARSLARIDA NOSTANDART TESTLARDAN
FOYDALANISH VA O'QUVCHILARNING BILIM, MALAKA VA
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Abduqodirova Shohista Abdumalik qizi -2 kurs magistr
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Zoologiya darslarida nostandart testlardan tashqari nostandart testlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish, ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish. Zoolgiya darslarida nostandart testlarning rasmli, juftlab yozish kabi turlaridan foydalanish.

Kalit so'zlar: Zoologiya darslari, nostandart test, bilim, malaka, ko'nikma, rasmli topshiriqlar, juftlab yozish, adaptiv test, integrativ test, mezonli-mo'ljal olish testlar.

Standart testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig'i savoli va to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa, nostandart testlar o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi,

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:
1.Integrativ testlar; 2.Adaptiv testlar; 3.Mezonli-mo'ljal dish testlari.
Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darjasini bo'yicha o'sib boravchi, ta'lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darjasini haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.
Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o'quvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqnini bajarish natijasida talabaning egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi.

Biologiyaning hayvonlarni o‘rganadigan bo‘limi zoologiya fanida o‘quvchilarning bilimini oshirish uchun standart testlardan tashqari nostandard testlarning ham bir qancha turlaridan foydalanib dars o‘tilsa o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada rivojlantirishga erishiladi.

Zoologiya darslarida nostandard testlardan jutlab yozish, rasmlar bilan ishslash, jadvallar asosida mavzuni mustahkamlash mumkin.

Juftlab yozishga misollar keltiradigan bo‘lsak:

Bir hujayrali hayvonlarning soxta oyoqlilar sinfini mustahkamlash uchun quyidagi nostandard testdan foydalanilsa bo‘ladi.

Organoidlarni ular bajaradigan vazifasi bilan juftlab yozing:

- a) soxta oyoqlar;
- 1) ortiqcha suvni chiqarish;
- b) qisqaruvchi vakuola;
- 2) hujayrani himoya qilish;
- d) hazm vakuolasi;
- 3) oziqni hazm qilish;
- e) hujayra po‘sti.
- 4) harakatlanish.

Qorinoyoqli mollyuskalar va ularning ahamiyatini juftlab ko‘rsating.

- a) kichik shilliq; 1) O‘zbekistonda uchramaydi;
- b) tok shillig‘i; 2) jigar qurti oraliq xo‘jayini;
- d) yalang‘och shilliq. 3) ekinlarga ziyon keltiradi.Biror bir

hayvonni rasmi berilib uning tana qismlarini o‘quvchilar tamonidan yoziladi.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lgan holda guruhlarga biror bir hayvon nomi berilib unini sestemaga solish orqali ham mavzuni o‘zlashtirish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan nostandard test topshiriqlarini zoologiya ta’limi jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish talabalarning o‘zlashtifgan bilim, ko‘nikma va

malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o‘rinni egallaydi.Shu sababii, test topshiriqlari mazmunini tanlash tamoyillari haqida fikr yuritish lozim.1-tamoyil. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil talabalaming o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash Reyting tizimining nazorat turlarlda test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi,Shuni qayd etish kerakki, Reyting tizimining nazorat turlari joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari bir-birldan nafaqat didaktik maqsadi, balki mazmuni va mazmunning yoritilish darajasi bilan farq qilishini nazarda tutish lozim.

2-tamoyil. Nazorat va baholanayotgan bilimlaming muhimligi tamoyili.Muhimlik tamoyili test topshirig‘i savollariga o‘quv dasturidagi eng mu him qonun, nazariva, tushuncha va ko‘nikmalami kirltishni talab etadi. Bu jarayonda ikkinchi darajali ma’lumotlar, raqamlar va faktik materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsiya etilmaydi.3-tamoyil. Mazmun va shakl birllgi tamoyili. Mazkur tamoyil test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi.Test topshiriqlarining mazmunini tanlashda bilimlaming turlari va ularning o‘ziga xosligini e’tiborga olish va mos ravishda shaklni tanlash lozim.4-tamoyil. Test topshiriqlarining mazmunan to‘g‘riliqi tamoyili.Test topshiriqlariga o‘quv kursi mazmunidagi obektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Masmundagi bahs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Bu holat talabalarining o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va ttalakalarlni haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash Imkonini bermiydi.5-tamoil. Test topshiriqlari mazmunida o‘quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi tamoyili. Mazkur tamoyil test topshiriqlarini tayyorlashda o‘quv kursi mazmunmi to‘liq va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O‘quv kursi bo‘yicha tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishlarga yetarli darajada o‘tibor qaratilgan, mazmunaft bu jarayon o‘quv materialida o‘z aksini tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar shaklida topgan bo‘isa, bunda hamma mavzular

bo‘yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo‘yicha test topshiriqlari tayyorlanadi.6-tamoyil. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi tamoyil*. Mazkur tamoyil test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlar, huquqiv meyorlar, fanning o‘quv kursi ta’lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi. Shuni qayd etish kerakki, o‘quv kursi mazmuni talabalar tomonidan shu kursga oid ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘ziga xos va mos proyeksiyani hosil qiladi. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, test topshiriqlarining mazmuni ham zamonaviy, ham talabalar tomonidan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish bosqichlariga mos bo‘lishi lozim

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O. Mavlonov BIOLOGIYA (ZOOLOGIYA) Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik Qayta ishlangan va to‘ldirilgan to‘rtinchchi nashr O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2017